



MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING AYRIM DASTURIY-USLUBIY JIHARLARI SHARHI

Janaberegnova A.J.

NDPI Matematika o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, mashg'ulot, metod, dars, texnologiya, talaba, oliy ta'lim.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, обучение, метод, урок, технология, студент, высшее образование.

Key words: Independent education, teaching, method, lesson, technology, student, higher education.

Kirish. Hozirgi kunda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, talabalar mustaqil ishlarini faqatgina kerakli balni to'plash uchungina bajarishmoqda. Albatta, bu holatda ishning samarasi kuzatilmaydi.

Talabalarning mustaqil ishlarni bajarishdagi faolligi jiddiy motiv mavjud bo'lgandagina jadallashadi. Bizga psixologiyadan ma'lumki, motiv biror faoliyatga yoki harakatga undovchi kuchdir.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi motivlarning quyidagi turlari mavjud [2]:

1. Tashqi motiv – talabaning ta'lim olish va oliy o'quv yurtidagi natijalarga bog'liqligi. Afsuski, bu faktor hozircha yetarlicha foyda bermayapti, lekin sekin-astalik bilan oliy o'quv yurtida olingan natijalarga ish beruvchilar tomonidan qiziqish ortmoqda.

2. Ichki motiv – talabaning ta'lim olish va oliy o'quv yurtiga ishtiyoqi (havasi) va uning imkoniyatlarini tanlagan kasbiga mosligi. Uni har bir abituriyentdan oliy o'quv yurtiga kirishgacha bo'lgan vaqtda aniqlash lozim.

3. Ta'limiy motiv – talabaning bajarilayotgan ishning foydali ekanligini anglab yetishida yuzaga keladi. Talabalar bajarilayotgan ishning muhimligi mutaxassislikka oid bilimlarni oshirish, dunyoqarashni kengaytirish kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashda ekanligini anglab yetishlari lozim. Mustaqil

ishlarning natijasi ma'ruza materiallarini, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarini yaxshiroq tushunishida talabaga yordam berishini isbotlab berish lozim.

Adabiyotlar sharhi. Ta'lim oluvchilarning faol fikrlovchi shaxs bo'lishi zarurati pedagogika fanida allaqachonlar ta'kidlangan va bu muammo qiziqib o'rganilgan. J.J.Russo (1712-1778), nemis pedagogi A.Disterverg (1790- 1866) lar ham o'zlarining didaktik ta'limotlarida ta'lim oluvchi va talabada mustaqil fikrlashni rivojlantirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan [3]. Ular mustaqillikni ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili deb hisoblaganlar. Zero, Distervergning fikricha, mustaqil egallangan bilimlar va ko'nikmalar katta ahamiyatga ega. Disterverg: 'Aqlni hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Ularni inson o'zi mustaqil o'rganishi, o'zlashtirishi va qayta ishlashi zarur...'. 'Yomon o'qituvchi tayyor haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa uni topish yo'lini o'rgatadi', - deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi talabaga 'obyekt' sifatida emas balki, 'subyekt' sifatida yondashishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida shaxsning bilish va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muntazam o'quv faoliyati bo'lgan mustaqil ta'limning dolzarbligini oshirmoqda [4].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Mustaqil ta'lim jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi, turli sharoitlarda ulardan foydalanish imkonini beruvchi universallik xarakteriga ega bo'ladi. Mustaqil ishlar turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, manbalar bilan ishlash, kuzatish ishlarini olib borish, loyihalash, tajriba sinovlarini o'tkazish, trenajyorlarda mashqlar bajarish va shu kabilar.

A.S.Linda va uning maslakdoshlari Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatganlar [5]:

- √ ta'lim oluvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar, mustaqil intellektual va amaliy faoliyatga qiziqtiruvchi ishlar;
- √ bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar;
- √ muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar;
- √ qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar;
- √ o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish, ish natijalarini maqsadiga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar;
- √ muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar;



√ qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida Ta'lim oluvchi shaxsini yaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'zi ustida ishlashi va ijodkorlikni shakllanishiga imkon beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlar talaba oldiga ma'lum bir ta'limiy muammoni hal qilishni qo'yadi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni esa, muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil fikr yuritish malakasiga ega talaba nostandart yoki kutilmagan vaziyatlarda tezkor, aniq va to'g'ri qaror qabul qilishga asos hisoblanadigan izlanuvchan ijodiy faoliyatni ta'minlovchi jihatlarga ega bo'ladi.

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi ta'limiy motivlar [6]:

1. Bajarilayotgan ishning foydaligi. Agarda talaba bajarayotgan ishining natijalaridan ma'ruza kurslarida, metodik qo'llanmalar tayyorlashda, laboratoriya mashg'ulotlarida va maqolalar tayyorlashda qaysidir miqdorda foydalansa, mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgaradi hamda bajarayotgan ishlarining sifati ortishi.

2. Talabalarning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu talabalarning kafedradagi ilmiy-tadqiqot, tajribaviy-konstruktorlik yoki metodik ishlarni bajarishdagi ishtiroki.

3. O'quv fanlari bo'yicha olimpiadada, ilmiy-tadqiqot yoki amaliy konkurslarda ishtirok etishi.

4. Bilimlarni nazorat qilish (baholash, reyting ballari, testlar, nostandart imtihon jarayonlari) motivi. Ushbu motiv ma'lum vaziyatlarda talabalar o'rtasida musobaqalashish jarayonini vujudga keltiradi.

5. Talabalarni ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari va ijodiy faolligi uchun rag'batlantirish (stipendiya, mukofotlar, rag'batlantiruvchi ballar) yoki yomon o'qiganliklari uchun jazolash.

6. Auditoriyada va undan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarni individual bajarishga erishish hamda ularni doimiy ravishda yangilab turish.

7. Mustaqil ishlarni bajarish va o'quv jarayonida o'qituvchi shaxsi asosiy motivlardan hisoblanadi. O'qituvchi mutaxassis hamda ijodiy shaxs sifatida talaba uchun namuna bo'lishi lozim. U talabaga ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishida ko'maklashishi lozim.

Mustaqil ishlar mustaqil faoliyat yuritish malakasiga ega mutaxassisni tayyorlashda ko'maklashadi. Mustaqil faoliyat yuritish sifatiga ega mutaxassis faqatgina ko'rsatmalarga binoan faoliyat ko'rsatuvchi oddiy ijrochi emas, balki, masalalar yechimiga ijodiy yondashib, yangiliklar yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik – o‘qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash hamda tanlash, ularni qiynalmasdan, tashqi ta’sir yordamisiz amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqillik holati namoyon bo‘lgan, biroq, avtonomlik xususiyati ko‘zga tashlanmasa, bu hol mustaqil bilim olishni emas, balki muammoli o‘qitishning mavjudligidan dalolat beradi. Demak, avtonomlik - o‘z mohiyatiga ko‘ra mustaqil bilim olishdan farq qiladi. U o‘quv va kasbiy faoliyat mustaqilligini belgilaydi. Bu sifatlari o‘quv-pedagogik masalalarning turli variantlarini tushunishda va mavjud holatni tanqidiy baholashda namoyon bo‘ladi. Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq [7].

Mustaqil bilim olish nazariyasi va texnologiyada ham pedagogik tamoyillar asosiy rol ni o‘ynaydi. Mustaqil bilim olayotgan subyektni ta’lim jarayonida hech kim o‘qishga majbur etmasligi muhimdir.

Mustaqil bilim olish sabablarining rivojlanishi subyektni ijodiy faoliyatini tashkil etishga undaydi va shu bilan uning oldiga - mustaqil bilim olish qanday bo‘lishi kerak degan savolni qo‘yadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish sabablari bir-biri bilan bog‘likdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik Ta’lim oluvchini mustaqil bilim olishdan har qanday boshqa sabablardan ko‘ra ko‘proq ko‘nglini sovtadi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko‘zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo‘yish muammosi alohida ajralib turadi. Agarda ta’lim olish umumiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi esa kasbiy shakllanish yoki kasbiy mahoratni o‘stirish hisoblanadi.

Mustaqil bilim olishni ta’minlashga imkon beradigan topshiriqlar tushuncha, sabab va qadriyatli yunalishlarni o‘zlashtirishi past darajali va qoniqarsiz bo‘lgan Ta’lim oluvchilar uchun qulay sharoitni yaratishni ko‘zda tutadi. Birgina muvaffaqiyatni his etish ham Ta’lim oluvchini mustaqil bilim olishga undovchi psixologik holatni yuzaga keltiradi.

Ta’lim oluvchining mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o‘qituvchi rahbarligida yoki o‘qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Lekin hamma ta’lim oluvchilar ham o‘qituvchi ishtirokisiz mustaqil izlanadi deb aytolmaymiz. Chunki ta’lim oluvchilarning aksariyatida o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi ularning mustaqil bilim olishlariga to‘sqinlik qiladi. Shunday ekan, ta’lim oluvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, oshirish uchun mustaqil ta’limni yakka holda emas balki kichik guruh



shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqimizda 'Birlashgan o'zar - birlashmagan to'zar', 'Kuch birlikda' maqollar bejiz ishlatilmagan. Guruh ishini lupaga tenglashtirishimiz mumkin. Agar lupa qimirlatmasdan bir tomonga yo'naltirib turilsa oddiy quyosh shu'lalaridan alanga hosil qilish mumkin, yakka holda quyosh shu'lasini alangani hosil qilishi qiyin. Shunday ekan, ta'lim oluvchilarni mana shu tarzda birlashtirib ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirsak, mavjud muammolar bartaraf etiladi va ko'zlangan maqsadga osonlik bilan erishiladi.

'Kichik guruh'larda mustaqil ta'limni tashkil qilish hozirda ta'lim oluvchilar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi mavjud muammolarni hal qilishga yordam beradi. Hozirda ta'lim oluvchilar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammolar quyidagilar: vazifalarni hamma ta'lim oluvchilarning bajarasligi; ta'lim oluvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi; ta'lim oluvchilar nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmagani; Ta'lim oluvchilarni baholashda vaqtning yetishmasligi;

Ta'lim oluvchilar orasida ilmiy muloqotning yo'qligi; fanga bo'lgan qiziqishning sustligi; Ta'lim oluvchilarga topshiriq berilayotganda temperament hususiyatlariga e'tibor qaratilmasligi va yana boshqa bir qancha muammolarni sanab o'tish mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun 'Kichik guruh'larda mustaqil ta'limni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

'Kichik guruh'larda mustaqil ta'limni qanday tashkil qilishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Ta'lim oluvchilar 3 guruhga ajratiladi, har bir guruhda bilim doirasi turlicha bo'lgan Ta'lim oluvchilar bo'lishi shart. Guruhlarga o'zining liderlik qobiliyati, bilimi yuqori ta'lim oluvchilardan sardorlar tayinlanadi va biror mavzuga mustaqil tayyorlanib shu mavzuni yoritib berish so'raladi.

Natijalar. Shunday qilib aytish mumkinki, talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat [8]:

- Fan bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Fan bo'yicha kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Mavzuga tegishli axborotmanbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- Fan bo'yicha an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar bilan ishlashga o'rgatish;

- Fan bo'yicha elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashga o'rgatish;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi. Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari kafedra fan yo'nalishi professori va dotsenti tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchilar bilan birgalikda tuzilgan, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etilgan. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu buyicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi. Kafedra mudiri va fakultet dekani taqdimnomasi asosida filial rahbariyati talabalarga mustaqil ishlarni bajarish uchun filialning o'quv zallarida va talabalar turar joyida zamonaviy kompyuterlar va Internet tarmog'i, zamonaviy darsliklar, elektron darsliklar, ma'ruza matnlari, turli ilmiy-ommabop jurnal manbalarini ta'minlab beradi va foydalanishga sharoit yaratadi.

Talaba mustaqil ishiga raxbarlik qilish kafedrada tuzilgan va fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan konsultatsiyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi uchun ajratilgan ball hisobidan baxolanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi. Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha, an'anaviy gurux reyting oynasida va fakultetning maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilangan va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlangan. Mustaqil ishlarni baholash me'zonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanish oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55%dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fan bo'yicha talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruxlarida, kafedra yig'ilishida muhokama etib boriladi.

Misol tariqasida biror fan bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:



1-jadval

№	Mavzu	Ajratilgan soat	Shakli
1	1-mavzu	3	Og'zaki
2	2-mavzu	4	Og'zaki
3	3-mavzu	3	Og'zaki
4	4-mavzu	4	Og'zaki
5	5-mavzu	4	Referat
6	6-mavzu	4	Og'zaki
7	7-mavzu	4	Og'zaki
8	8-mavzu	4	Og'zaki
9	9-mavzu	4	Og'zaki
Jami		34 soat	

2-jadval

Fan uchun ajratilgan umumiy reyting ballari taqsimoti

Fanga ajratilgan soatlarga nisbatan ball hisobida	JB1	OB1	JB2	OB2	YaB
100	15	20	15	20	30

3-jadval

Modul asosida mashg'ulot turlariga ajratilgan reyting ballari taqsimoti

Mashg'ulot turi	JB1	OB1	JB2	OB2	YaB
Ma'ruza		15		15	
Amaliy mashg'ulot	15		15		
Mustaqil ta'lim		5		5	

4-jadval

"Reyting" tizimiga ko'ra joriy va oraliq baholash jadvali

Fan nomi: _____	
Fan uchun maksimal ball:	100
O'tish koeffitsenti:	55
Umumiy soat:	130
Ma'ruza:	48
Amaliy mashg'uloti:	48
Laboratoriya mashg'uloti:	0

**Adabiyotlar:**

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 14avgust 286 sonli buyrug'iga 1-ilova
2. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha YO'RIQNOMA
3. S.E.Umirov, B.Yu.Toshboev, Sh.M.Rasulov, A.Yu.Mustanov. Toshkent-2012. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi N I Z O M I.uslubiy ko'rsatma.5 bet
4. Gans-Diter Xopfner. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mustaqil o'rganishning ahamiyati. KHK lari uchun o'quv qo'llanma.
5. O'zbekiston-Shvesariya «Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish» loyihasi. Toshkent, 2019 yil.
6. Najmiddinova H. Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida o'zlashtirish samaradorligiga erishish. Ta'lim muam- molari. 2009 yil, 2-son.
7. Otamirzayev O.U., Zokirova D.N., Vaxobova S.K. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. // Xalqaro ilmiy jurnal. -2016 yil. - № 4.
8. Otamirzayev O.U., Zokirova D.N., Vaxobova S.K. Elektrotexnika fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish. // Fan vaqti. 2016. - No 2 (26).
9. www.ziyonet.uz
10. www.natlib.uz

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim olish zaruriyati, uning mazmun-mohiyati va dastur-metodik shartlari ko'rib chiqiladi. Maqolada turli olimlarning ilmiy xulosalari va muallifning sohasiy xulosalari keltirilgan. Mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha kengaytirilgan yo'nalishlar taklif etiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается необходимость самостоятельного образования в высшей школе, его сущность и программно-методические условия. В статье представлены научные выводы различных ученых и полевые выводы автора. Предлагаются расширенные направления организации самостоятельной работы.

SUMMARY

The article discusses the necessity of independent education for higher education, its essence and programmatic and methodological conditions. The article presents the scientific conclusions of various scientists and the author's field conclusions. Advanced directions for organizing independent work are offered.